

VOYAGA YETMAGANLARNING JINSIY ERKINLIGIGA QARSHI JINOYATLAR SODIR ETILISHINING SABAB VA SHAROITLARI: KRIMINOLOGIK TAHLIL

Kattaqulov Murodillo Qurbonboyevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqola yoshlarning jinsiy erkinligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar bilan bog'liq muhim ijtimoiy muammolarni o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu jinoyatlar nafaqat jiddiy jinoiy harakat, balki barcha davlat va jamoat institutlarining diqqat markazida bo'lishi kerak bo'lgan o'tkir ijtimoiy muammodir. Maqolada bunday jinoyatlarni sodir etilishiga olib keladigan sabab va sharoitlar to'liq kriminologik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar, o'smirlar, jinsiy zo'ravonlik, jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlik, sabab va shart-sharoitlar.

Abstract: The article is dedicated to exploring one of the pressing social issues related to crimes against the sexual freedom of minors. Violating their sexual freedom is not only a serious criminal offense but also a significant social problem that demands attention from all governmental and societal institutions. The article provides a detailed criminological analysis of the causes and conditions that contribute to such crimes.

Keywords: crime, minors, teenagers, sexual violence, sexual freedom and integrity, causes and conditions.

S o'nggi yillarda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy davlatni barpo etishning zamonaviy bosqichi ayrim ijtimoiy me'yorlarning sezilarli pasayishi va ma'naviy qadriyatlarning susayishi tendensiyalari bilan tavsiflanmoqda. Bu, ayniqsa, O'zbekiston Internet segmentida va ayrim ommaviy axborot vositalarda pornografik materiallarning deyarli cheksiz tarqalishi, bir jinsli munosabatlarning kamuflyajlangan targ'iboti va jinsiy muloqot sohasida haddan tashqari erkinlik bilan bog'liq. Natijada, bu kabi holatlar jamiyatda jinsiy zo'ravonlikka nisbatan toqatlilik va viktimlik holatining oshishiga, natijada esa shaxsning jinsiy daxlsizligiga qarshi zo'ravonlik jinoyatlarining muqarrar ravishda o'sishiga olib kelmoqda.

Kriminologiya fanining asosiy vazifalaridan biri jinoyatchilikning holati, dinamikasi va tuzilishini, jinoyat turlarining xususiyatlari va farqlarini o'rganish, shuningdek, jinoyatchilikning sabablari va sharoitlarini aniqlashdir. Bu jinoyatchining shaxsini tahlil qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish uchun dastlabki bosqich hisoblanadi. Yosh bolalar va o'smirlarga

nisbatan jinsiy tajovuzlarning sabab va sharoitlarini o'rganish jinoyatlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishning zarur sharti hisoblanadi. Bunday jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'luvchi omillarni bilish, jinoyatlarning oldini olish samaradorligini ta'minlash uchun muhimdir. Faqatgina yosh bolalar va o'smirlarga nisbatan jinsiy tajovuzlarni keltirib chiqaruvchi omillar tizimini o'rganish emas, balki ularning jinsiy jinoiy tajovuz rivojlanishiga ta'sir etish mexanizmlarini ham ochib berish zarur.

Huquqshunoslikda jinoiy faoliyatni tahlil qilishda jinoiy xulq-atvorni belgilovchi tashqi (obyektiv) va ichki (subyektiv) sharoitlar farqlanadi[9]. Professor N.A.Belyayev ta'kidlaganidek, obyektiv sabablar jinoyatlarni bevosita emas, balki inson ongiga ta'sir etib, shaxsning antiijtimoiy xususiyatlarini shakllantiradi va aynan shu xususiyatlar jinoyatning bevosita sababchisi hisoblanadi. Shuning uchun jinoyatchilik sabablarini o'rganish jinoyatchi shaxsi shakllangan sharoitlarni o'rganishga, shu sharoitlarning ilmiy umumlashtirilishi va tahliliga bog'liq bo'lishi lozim [2].

Professor N.A. Belyayevning jinoyatlar sabablari haqidagi nuqtayi nazarini inkor

qilmasdan, bir qancha masalalarda mulohaza yuritish mumkin. Avvalo, u jinoyatlarning obyektiv sabablarini inson ongi orqali shakllanadigan antiijtimoiy xususiyatlar orqali tushuntiradi, bu nazariya o'zining asosli jihatlariga ega. Lekin, ushbu yondashuvda jinoyatchilikning sabablarini faqat shaxsga bog'lash holati muammoni bir yo'nalishda ko'rishga olib keladi. Jamiyatsdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa omillar ham jinoyatchilikka katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, jinoyatchilikning asosiy sabablarini o'rganishda faqat shaxsiy xususiyatlarga emas, balki jamiyatning umumiy vaziyatiga e'tibor qaratish kerak. Ishsizlik, adolatsizlik yoki ta'limga yetarlicha e'tibor bermaslik kabi omillar jinoyatchilikka olib keluvchi sharoitlarni yaratadi. N.A.Belyayev ta'kidlagan shaxsning antiijtimoiy xususiyatlari ana shu ijtimoiy muammolardan ham kelib chiqishi mumkin.

Shuningdek, jinoyatchilik sabablarini o'rganishda insonning ongiga ta'sir qiluvchi axloqiy, ruhiy va madaniy qadriyatlarning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Ammo bu omillarni o'rganishda ko'pincha shaxsning mustaqil faoliyati emas, balki u yashaydigan muhit, tarbiyasi, atrofidagi insonlar bilan o'zaro munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchilik sabablari va jinoyatlar sodir etilishiga yordam beradigan sharoitlar muammosi kriminologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, avvalo sabablar va sharoitlar paydo bo'ladi, keyin jinoyatlar sodir etiladi, jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsiyati shakllanadi va profilaktika hamda kurash choralarini qo'llash zarurati tug'iladi – bularning barchasi kriminologiyaning tadqiqot sohasiga kiradi.

V.N.Kudryavsev va V.Ye. Eminovning fikrlariga ko'ra, kriminologiyada jinoyatchilik sabablari jamiyat hayotidagi hodisalar sifatida tushuniladi, ular nafaqat jinoyatchilikni keltirib chiqaradi, balki uning mavjudligini qo'llab-quvvatlaydi, o'sishi yoki kamayishiga olib keladi. Shuningdek, jinoyat sodir etilishiga yordam beradigan sharoitlar ham ajratib ko'rsatiladi. Bu sharoitlar tabiiy, ijtimoiy va texnik omillar bo'lib, ular o'zlari jinoyatni keltirib chiqarmaydi, lekin uning amalga oshishiga yordam beradi [5].

Jinsiy jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'luvchi omillar va shart-sharoitlarni tahlil qilishdan oldin, jinoyatchilik sabablarini

o'rganishda ilmiy yondashuvlarni ajratish maqsadga muvofiqdir.

Kriminolog olimlar jinoyatchilik sabablarini aniqlashda to'rtta asosiy yondashuvni ilgari suradilar.

Birinchi yondashuv "konditsionalistik" (shartli) deb ataladi va unda jinoyat sababi sifatida ma'lum bir natijani keltirib chiqaruvchi zarur va yetarli sharoitlar yoki natija yuzaga kelgan holatlar majmuasi tushuniladi [6]. Bu holatda jinoyatchilikka ta'sir etuvchi omillar yoki sharoitlar sabab sifatida emas, balki shartlar yoki ta'sir qiluvchi omillar sifatida qaraladi.

Ikkinchi yondashuv – an'anaviy, ya'ni jinoyatchilik sabablarini tashqi kuchli ta'sir sifatida ta'riflashga imkon beradi, bu ta'sir nafaqat jismoniy, balki uning turli shakllardagi psixologik ta'sirni ham o'z ichiga oladi [6]. Bu yondashuvga ko'ra, jinoyatga olib keluvchi omillar faqat insonning ichki xususiyatlariga emas, balki uning atrofidagi jismoniy va psixologik muhitga ham bog'liq. Ushbu nazariya jinoyatlar sabablarini insonning shaxsiy xususiyatlaridan tashqaridagi omillar, ya'ni jamiyatsdagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan izohlaydi.

Bu yondashuvning afzalligi shundaki, u jinoyatchilikning keng qamrovli sabablarini ko'rish imkonini beradi. Masalan, tashqi ta'sirlar sifatida insonning mehnat sharoitlari, iqtisodiy imkoniyatlari, ta'lim olish darajasi va hatto ommaviy axborot vositalari orqali oladigan ma'lumotlari jinoyatchilikka ta'sir qiluvchi omillar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shu bilan birga, psixologik ta'sirlar, ya'ni insonni kuchli ruhiy bosimga yoki stress holatiga olib keladigan vaziyatlar ham jinoyatga olib keluvchi sabablardan biri bo'lishi mumkin.

Uchinchi yondashuv "an'anaviy-dialektik" deb ataladi va unda sabablar natijani keltirib chiqaruvchi barcha omillar sifatida tushuniladi. Bu yondashuvda sabab va natija o'rtasidagi aloqalar chuqurroq tahlil qilinib, barcha omillar natijaga ta'sir qiluvchi elementlar sifatida ko'rib chiqiladi. Ya'ni, faqat bir yoki ikki sababga e'tibor qaratish emas, balki keng qamrovli tahlil orqali natijani shakllantiruvchi turli xil omillarni inobatga olish muhim sanaladi. Bu yondashuv, jamiyatsdagi yoki tabiiy jarayonlardagi murakkab munosabatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

To'rtinchi yondashuv "interaksionistik" (o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridan sababiyatga yondashuv) deb ataladi. Unga ko'ra, jinoiy xulq-atvor va jinoyatchilik sabablari inson (odamlar) va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir sifatida tushuniladi. Bunda ichki va tashqi sabablar ajratiladi, ular bir vaqtning o'zida faoliyat ko'rsatuvchi tugunli omillar sifatida qaraladi[3]. Bu yondashuvga ko'ra, jinoiy xulq-atvor va jinoyatchilik sabablari insonning shaxsiy xususiyatlari (ichki sabablar) va ularni o'rab turgan ijtimoiy muhit (tashqi sabablar) o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. Bu yerda ichki va tashqi omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni ajratish mumkin emas, chunki ular birgalikda ishlab, jinoiy xatti-harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Interaksionistik yondashuv jinoyatchilikni murakkab ijtimoiy-ruhiy jarayon sifatida tushunishga yordam beradi.

Yosh bolalar va o'smirlarga nisbatan jinsiy tajovuzlarning sabablari va sharoitlari jinsiy munosabatlar sohasining o'ziga xos xususiyati bilan belgilanadi. Bu munosabatlarda, boshqa shaxslar o'rtasidagi munosabatlardan farqli o'laroq, shaxsning xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

G.A.Yegoshina yosh bolalar va o'smirlarga nisbatan jinsiy jinoiy tajovuzlarning sabablari va sharoitlarini ijtimoiy, biologik va psixologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda farqlash lozimligini ta'kidlagan [4].

Xususan, shaxsning biologik xususiyatlari uning jinsi, yoshi, temperamenti va har qanday patologik og'ishlari bilan belgilanadi. Psixologik xususiyatlar tizimi esa shaxsning ruhiy jarayonlarining individual xususiyatlarini, ya'ni: xotira, his-hayajon, idrok, iroda, ehtiyoj, diqqat va hokazolarni o'z ichiga oladi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, ular insonda biologik tug'ma xususiyatlar rivojlanish jarayonida shakllanadi. Faqat ijtimoiy sharoitlarga bog'liq xususiyatlar esa bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, odatlar, istaklar, dunyoqarash, e'tiqodlar va shu kabilardan iborat bo'lib, ularni shakllantirish uchun ta'lim olish zarur [4].

Fikrimizcha, bunda biologik va psixologik xususiyatlarning jinoyatga ta'sirini tushunish muhim bo'lsa-da, jinoyatning asosiy sabablari ijtimoiy sharoitlarda yotadi va ular jinoiy harakatlarning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, jinoyatlarning sabablarini

tushunishda bu omillarni birgalikda tahlil qilish zarur deb o'ylaymiz.

Ye.A.Aliyevaning fikriga ko'ra, jinoiy jinsiy xatti-harakatlarning shakllanishi va qayta tiklanishida quyidagi kriminogen omillar muhim ahamiyatga ega:

- yaqinlar tomonidan bolalarga yetarlicha e'tibor berilmasligi va oila tomonidan bolaning jinsiy xavfsizligini ta'minlashda zarur ishtirok etmaslik (mualliflar izohi: bu bolalarning o'z xavfsizligi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmisligiga va ehtimoliy tahdidlarga nisbatan zaif bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin);

- Internet va ommaviy axborot vositalaridagi noxush (jumladan, pornografik yoki zo'ravonlik sahnalarini o'z ichiga olgan) materiallarga ochiq kirish imkoniyati (Bu kabi materiallar yoshlar ongiga salbiy ta'sir qilishi va ularning xatti-harakatlarini qonun chegarasidan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin);

- davlat organlari (jumladan, huquq-tartibot organlari) va muassasalarining (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy himoya sohalarida) qoniqarsiz faoliyati (Bu muammolar davlat tomonidan nazorat va profilaktika ishlarining yetarli darajada olib borilmasligiga ishora qiladi);

- qonunchilikning mukammal emasligi (ya'ni jinoyatlarning profilaktikasi va jazolanishini samarali tashkil qiluvchi qonun hujjatlarining yo'qligi yoki zaifligi ham muhim kriminogen omillardan biri hisoblanadi. Qonunlardagi bo'shliqlar va zaifliklar jinoyatchilarning javobgarlikdan qochishlari yoki jinoyat sodir etishlariga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratishi mumkin)[1].

Bu borada M.A.Gorbachyov jinsiy jinoyatchilikning yuqori darajasini bir qator sabablar bilan izohlaydi, jumladan:

jamiyatda axloqiy qadriyatlarining keskin susayishi va ijtimoiy xulq-atvor standartlariga, shu jumladan jinsiy odobga bo'lgan talablar darajasining pasayishi (ko'plab tungi klublar va "ko'ngilochar" muassasalarining mavjudligi, ularda alkogol ichimliklari, tamaki mahsulotlari, turli xil stimulyatorlar va ba'zan giyohvandlik moddalarining keng iste'mol qilinishi);

yuqori darajadagi migratsiya, ya'ni yaqin va uzoq xorijdan keluvchi shaxslar oqimining ortishi, ularning etnik va psixologik jinsiy xulq-atvor normalari ko'pincha mamlakatimizda qabul qilingan huquqiy normalar bilan mos kelmasligi [3].

Umuman olganda, kriminologik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, zo'ravonlik jinoyatchiligi o'sishi va uning jamiyat uchun xavfliligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

avvalgi qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni tubdan qayta baholash, pulning va moddiy omilning yagona qadriyat sifatida tobora omma ongida tan olinishi;

axloq, ma'naviylik va ma'naviysizlik chegaralarining umumiy buzilishi;

aholi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlanish va turmush darajasiga bog'liq ravishda jamiyatda ijtimoiy mojarolar ko'lami va darajasining ortishi;

aholi katta qismining hayot tarzi va ijtimoiy maqomi keskin o'zgarishi, bunga bog'liq ravishda maqsadlarga erishish uchun har qanday vositalarga yo'nalishning kuchayishi [7].

Xorijiy kriminologiyada shaxsning biologik xususiyatlari psixologik xususiyatlar bilan birga, ayniqsa, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinsiy tajovuzlarning sabablari sifatida ham ko'rsatiladi [8].

Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoiy zo'ravonlikka oid sud hukmlari tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu jinoyatlarning 63 foizi yopiq hududda (jabrlanuvchi yoki ayblanuvchilarning uyida), 38 foizi ochiq joylarda (dala maydonlarida, tugallanmagan obyektlarda) va qolgan qismi boshqa joylarda (mashinada, liftida) sodir etilgan.

Sud hukmlari tahlillari voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarning joylashuvi jinoyat shart-sharoitlariga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Jinoyatlarning katta qismi yopiq hududlarda sodir etilganligi (63%) jinoyatchilarning o'zlarini xavfsiz his qilganliklari va fosh bo'lish ehtimoli kamligi bilan izohlanadi. Voyaga yetmaganlarning yopiq uy-joylarda va boshqa binolarda jinoiy tahdidlarga duchor bo'lishi ko'pincha qurbon va jinoyatchi o'rta-sidagi tanishlik yoki qarindoshlik aloqalari bilan bog'liq. Bu holat jinoyatchilarga qurbon bilan bevosita muloqotda bo'lish imkonini beradi va qurbonlarni o'zlarini himoyasiz his qilish holatiga tushiradi. Qarindoshlik va yaqin tanishlik jinoyatchiga ishonchni suiiste'mol qilish imkonini yaratadi, bu esa jinoyatning yopiq joylarda sodir etilishini yanada osonlashtiradi.

Shuningdek, ochiq joylarda sodir etilgan jinoyatlar (38%) jinoyatchilarning xavfsizlikka e'tibor bermagan holatlarda sodir etilishini

ko'rsatadi. Jinoyatning sharoiti va sodir etilish joyi jinoyatchi tomonidan rejalashtirilganligi va ularning o'z qurbonlariga nisbatan qo'llagan ehtiyotkorlik darajasiga bog'liq.

Qolaversa, tahlillar asosida shahar va qishloq turmush tarziga xos xususiyatlar ham voyaga yetmaganlar va yosh bolalarga nisbatan sodir etilgan jinoiy zo'ravonliklarning sodir etilishi sharoitiga ta'sir qilishi o'rganildi. Jumladan, shaharlarda ushbu jinoyatlar asosan yashash xonadonlarda (jabrlanuvchi yoki ayblanuvchining xonadonida), yotoqxonada, uyning podvalida yoki avtomobilda sodir etilgan. Qishloq hududlarida esa jinoyatlar ko'proq dalada, uy atrofidagi hududda, tashlandiq uylarda, yaylovlarda sodir etilgan. Bu sharoitlar shahar va qishloq turmushining o'ziga xosliklarini aks ettiradi, jinoyat sodir etuvchilarning jinoiy harakatlarini rejalashtirishda ularni qanday vositalardan foydalanishlarini belgilaydi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilar ko'pincha odamsiz, xatarli hududlarni tanlaydilar, jabrlanuvchilar esa bunday joylarga yaqin yashashlari yoki aldanib qolishlari sababli qurbon bo'lishadi. Yosh bolalar ko'pincha bu joylarga hech narsa bo'lmaydi, deb ishonib, o'z ixtiyorlari bilan borishgan (ayblanuvchilar ularga muzqaymoq yoki shirinlik olib beraman deb aldashgan).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, voyaga yetmaganlar va yosh bolalarga nisbatan sodir etilgan jinoiy zo'ravonliklar asosan yoz oylarida (48,4%) sodir bo'lgan. Kuz faslida bu ko'rsatkich 28,5%, bahorda 15,8%, qish oylarida esa 7,3%ni tashkil etgan. Jinoyatlarning qish faslida kamayishi hodisalarning asosan yopiq va yozgi ochiq hududlarda sodir etilishi bilan bog'liq bo'lib, bu davrda, ayniqsa yozgi vaqtda qurbonlar va jinoyatchilar ko'proq tashqi muhitda, ochiq joylarda bo'lishlari ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Ko'pincha voyaga yetmaganlar (bolalar)ga nisbatan jinsiy tajovuzlar sodir etilganda, jinoyatchilar bir vaqtning o'zida jismoniy zo'ravonlikni ham qo'llaganlar. Sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan jinoyat ishlarini o'rganish natijalariga ko'ra, yosh bolalar va o'smirlarga nisbatan jinsiy tajovuzlarning 75% holatida qurbonlarga ruhiy zo'ravonlik qo'llangan (birovga aytga o'ldirish bilan qo'rqitib).

Umuman olganda, yosh bolalar va o'smirlarga nisbatan jinsiy tajovuzlar sodir etilgan joy, vaqt, usul va sharoitlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tashkilotlari, maktablar va jinoyatchilikning oldini olish bilan shug'ullanuvchi ta'lim muassasalari o'smirlar va yoshlar bilan, xususan, tuman markazlari va qishloq joylarida, ularning bo'sh vaqtlarida jinsiy tajovuzlarning oldini olish borasida ishlarni kuchaytirishlari zarur.

Jamoatchilik, yosh bolalar va o'smirlarning ota-onalari hamda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ular eng ko'p tashrif buyuradigan joylar, xususan, bo'sh turgan xo'jalik binolari, chordoqlar va podvallar qat'iy nazoratda bo'lishi kerak. 18 yoshga to'lmagan shaxslarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish maqsadida yil davomida, ayniqsa, bahor-yoz-kuz mavsumida ularning kechki vaqtlarida bandligini ta'minlash bo'yicha ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan manbalar

1. Алиева Е.А. Уголовно-правовой и криминологический аспекты развратных действий: Автореф. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2021. – С. 24 // <https://www.dissercat.com/content/ugolovno-pravovoi-i-kriminologicheskii-aspekty-razvratnykh-deistvii>
2. Беляев Н.А. Методологические основы изучения причин преступности // Тез. док. и сообщ. на межвуз. конференции по теоретическим и методологическим проблемам правовой науки. – Кишинев, 1965. – С. 200-201.
3. Горбачев М.А. Сексуальная преступность в России: криминологическое исследование: Дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2015. – С. 174.
4. Егошина Г.А. Сексуальные посягательства на малолетних и несовершеннолетних и их предупреждение (уголовно-правовое и криминологическое исследование по материалам Республики Марий Эл): Дис. ... канд. юрид. наук. – Йошкар-Ола, 1999. – С. 213.
5. Криминология: Учебник для вузов / под ред. В.Н. Кудрявцева и В.Е. Эминова. – М.: Инфра-М, 2010. – С. 108.
6. Криминология: Учебник для вузов / Под общ. ред. д.ю.н., проф. А.И. Долговой. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Норма, 2007. – С. 252.
7. Кулаков А.В. Уголовно-правовой и криминологический аспекты насильственных действий сексуального характера: Дис. ... канд. юрид. наук. – Рязань, 2004. – С. 216 // <https://www.dissercat.com/content/ugolovno-pravovoi-i-kriminologicheskii-aspekty-nasilstvennykh-deistvii-seksualnogo-kharakter>
8. Старович З. Указ. соч. – С. 93; Лнтонян Ю.М., Ткаченко А.А. Сексуальные преступления. Чикатило и другие. – М.: Фирма "Амальтея", 1993. – С. 93-97; Мани Д. Судебная сексология: серийные изнасилования и сладострастные убийства // Сексуальные преступники. – М.: НИИ МВД Российской Федерации, 1992. – С. 15.
9. Затона Р.Е. Субъективные обстоятельства, способствующие совершению половых преступлений: криминологическо-психологический анализ // Прикладная психология, 2002. – № 3. – С. 85.

